

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047658>

ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM DININING AHAMIYATI

Sharifboyeva Fazilat Odilbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
magistratura talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ziyorat turizmini rivojlantirishda islom dinining ahamiyati yoritilib berilgan. Musulmon ziyoratchilar uchun qanday qulayliklar yaratish ularning ziyorat qilishlarida hech qanday to'siqlar bo'lmasligi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerakligi batafsil bayon e'tilgan. Maqolada yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda islom dinining ahamiyati haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** ziyorat turizmi, diniy turizm, islomiy turizm, "halol" va "harom"*

***Introduction:** O'zbekistonning ko'p asrlik tarixi hamda islom, xristian va budda dinlari bilan bog'liq madaniy meros obyektlari ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Vatanimiz hududida dunyoga mashhur qadamjo va ziyoratgohlar borki, ularni ziyorat qilish islom dinida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, ziyorat turizmini yanada rivojlantirish orqali yurtimizning turizm salohiyatini yuksaltirish imkonini beradi.*

Bugungi kunda yurtimizda jami 7476 ta moddiy madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 4308 tasi arxeologiya, 2079 tasi arxitektura va 694 tasi monumental san'at yodgorligi, 395 tasi esa diqqatga sazovor joy sanaladi. Yodgorliklarning 75% dan ortig'i respublikaning markaziy turistik shaharlarida joylashgan. Turistik rekreatsion obyektlarning 114 tasi Toshkent shahrida, 118 tasi Samarqandda, 201 tasi Buxoroda va 310 tasi Xiva shahrida joylashgan bo'lib, hozirgi kunda bu turistik resurslarning 3/1 qismigina turizm sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, qolganlari esa turistik infratuzilmaning shakllanishi va yangi turmahsulotlar tayyorlashni talab etadi. Jumladan, 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham yurtimizda 8000 ga yaqin madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga uning atigi 500 nafari kiritilgani tanqidiy ta'kidlab o'tildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son Farmoni hamda mazkur farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-fevraldagi 100-son Qarorining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu farmon va qarorlarda yurtimizda nafaqat islom dini bilan bog‘liq turizm obyektlari, balki turli xil dinlarga va madaniy, tarixiy, me‘moriy, arxeologik ahamiyatga ega ziyorat maskanlariga xorijiy hamda mahalliy ziyoratchilarni jalb qilish nazarda tutilgan.

Dunyoning “Halol turizm” bo‘yicha ixtisoslashgan yetakchi tashkilotlaridan biri “Crescent Rating” 2015-yildan buyon 130 ta davlatlar orasida 40 dan ortiq mezon asosida musulmonlar sayohati indeksini tuzib kelmoqda. “Musulmon mehmondo‘stligi” reytingi natijalari esa sayohatchilarga jozibador hisoblangan davlatlarni to‘g‘ri tanlashiga yordam beradi.

Methods:

Hozirgi kunda ziyorat turizmiga katta e‘tibor qaratilmoqda, chunki islom tarixiy jihatdan diniy ahamiyatga ega bo‘lgan sayohatlarning ayrim iqtisodiy va ijtimoiy vazifasini qamrab olgan. Islom dinida haj, umra va ziyorat tushunchalari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Jumladan, haj va umra diniy ibodat bo‘lib, ularni aniq, belgilangan tartibga rioya etgan holda amalga oshirish talab etiladi. Shu sababli haj va umra turizm yoki ziyorat tushunchasi hamda turizm obyekti maskanlarini ziyorat qilish bilan tenglashtirilmaydi. Haj ma‘lum geografik doirada, ya‘ni Saudiya Arabistoni qirolligidagi Makka va Madinaga qadar bo‘lgan hududda amalga oshiriladigan faoliyatdir. Haj – unga qodir bo‘lgan musulmonlar uchun farz amal bo‘lib, Zulhijja oyining 9- va 10- kunlarida (hijriy yilning oxirgi oyida) amalga oshiriladi. Umra esa butun yil davomida bajarilishi mumkin bo‘lgan ziyoratdir.

Mazkur safarlarda qatnashayotgan musulmonlar odob-axloq, muayyan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari darkor, chunki haj va umrada axloqsizlik harakatlari va tortishuvlar bo‘lmasligi lozim. Bu safarlar islom dinidagi eng sharaflig va ulug‘ amallar hisoblanadi.

Islom dinida ziyorat turizmi musulmonlar tomonidan amalga oshiriladigan sayyohlik safarlarida, ularning diniy, ma‘naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda xizmatlarni taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Mutaxassislarning fikrlariga ko‘ra, ziyorat turizmi bu diniy va dam olish turizmini birlashtiradigan sayohatning bir turidir. Musulmonlar dunyo bo‘ylab turli maqsadlarda tarixiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan turistik faoliyat turlarini amalga oshiradilar. Sayohat mobaynida musulmonlar kundalik turmush tarzining ajralmas bir qismi, ya‘ni ularning e‘tiqodiga mos keladigan xizmatlarni taqdim etish, ibodat qilish uchun sharoit yaratilganligi muhim ahamiyatga

egadir. Shubhasiz, musulmonlar ma'lum bir joylarga sayohat qilganlarida ularning diniy e'tiqodlari ushbu maskanlardagi xatti- harakatlari va munosabatlariga ta'sir qiladi.

Bugungi kunda ziyorat turizmi, diniy turizm, islomiy turizm kabi atamalar ilmiy adabiyotlar hamda kundalik hayotda keng qo'llanmoqda. Ziyorat turizmi, diniy turizm keng qamrovli tushunchalar bo'lib, turli xil din vakillarining diniy maqsadlardagi sayohatini anglatadi, islom turizmi aynan musulmonlarning sayohatini qamrab oluvchi tushuncha hisoblanadi. Jumladan, ilk bor islomiy turizm atamasi 2000-yilda Islom hamkorlik tashkilotining yig'ilishida muhokama qilingan. Ushbu yig'ilish ishtirokchilari islomiy mamlakatlar bo'ylab daromad olish va mamlakatlarni rivojlantirish maqsadida sayohat qilish g'oyasini taklif qilganlar.

Musulmonlar ziyorat turizmida asosan islom dini bilan bog'liq obyektlar bo'ylab sayohatlarni, turlarni amalga oshiradi. Ziyorat turizmi musulmon sayyohlarning jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy qoniqishi hamda Allohga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladigan turistik faoliyatlardan biri hisoblanadi. Ziyorat turizmi sayohatchini buyuk va ezgu maqsadlar sari chorlaydi. Sayohatning maqsadi turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni sayohatni ibodat bilan bog'lash, dunyoqarashni kengaytirish, insonlarda Allohga va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlariga nisbatan hurmatni oshirish, shuningdek, Alloh yaratgan mo'jizalar haqida o'ylash va bu buyuk olam go'zalligidan sayohat orqali bahramand bo'lish hamda mavjud ne'matlar uchun shukronalik hissini ifoda etish, qadrlashdir.

Sayohat qilish inson qalbida Allohning yagonaligiga bo'lgan kuchli ishonchni shakllantirish uchun juda muhimdir. Sayohat qilish orqali musulmon sayyohlar o'z salomatliklari va farovonliklarini yaxshilaydilar, ruhiy zo'riqishni kamaytiradilar va Allohning yaratganlari borasida tafakkur qilishdek buyuk ibodat uchun imkon topadilar. Ziyorat turizmining o'ziga xos talablaridan biri shundaki, sayohat davomida islomiy qadriyatlar doirasida zavq olish istagi amalga oshadi. Ziyorat turizmi xarid qilish, tibbiyot, sport, do'stlar va qarindoshlarning uylariga tashrif buyurish kabi tadbirlarni ham qamrab oladi.

Ziyorat turizmida turistik faoliyatning barcha turlari islom qonunchiligi, ya'ni "shariat" doirasidan chiqmasligi lozimdir. Shariat qoidalariga zid bo'lgan faoliyatlar sirasiga turistlar va jamiyatga zarar yetkazadigan quyidagi odatlarni misol qilib keltirish mumkin:

- giyohvandlik;
- ichkilikbozlik;
- yengil hayot tarzini targ'ib qilish va olib borish.

Bundan tashqari, sayyohlar tashrif buyuradigan maskan, sarf- xarajatlarning miqdori, sayohat mobaynidagi sayyohning faoliyat turlari va unga hamrohlik qilish uchun munosib gid tanlash sayohatning sifatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Islom dinida ziyorat tushunchasi. "Tashrif buyurmoq", "borib ko'rmoq" degan ma'nolarni anglatuvchi ziyorat so'zining istilohiy ma'nosi Alloh aziz qilgan insonlarni va muqaddas qadamjolarini savob umidida borib ko'rishdir. Ziyorat – hurmat yuzasidan keksa tabarruk kishilar, hurmatli zotlar huzuriga tashrif buyurib, ularning holidan xabar olish, ularni muborakbod etishdir. Islom dinida dastlab qabrlarni ziyorat qilish man qilingan edi. Negaki, johiliyat davrida arablar musibat yetganida Allohning taqdiridan norozi bo'lib g'azablanishar, qabr tepasiga borib oh-voh qilishardi. Shuning uchun ham Rasululloh (s.a.v.) sahobalarini fitnadan saqlash uchun qabr ziyoratidan qaytargan edilar. Keyinchalik sahobayi kiromlar qalblariga imon chuqur o'rinish, e'tiqodlari mustahkam bo'lgach, Rasululloh (s.a.v.) qabrlarni ziyorat qilishga buyurganlar.

Sulaymon ibn Burayda otasidan rivoyat qiladi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Sizni qabrlarni ziyorat qilishdan qaytargan edim. Batahqiq, Muhammadga onasini ziyorat qilishga izn bo'ldi. Bas, u (qabr)larni ziyorat qiling. Albatta, ular oxiratni eslatadi", dedilar [3].

Results and discussion: Shariat tomonidan ruxsat berilgan mahsulotlarni iste'mol qilish barcha musulmonlar uchun diniy burch hisoblanadi va bu shariat qoidalariga asoslanadi. Shu bilan birga, shariat talablariga javob beradigan turistik mahsulotlar odatda Qodir Alloh va Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning ko'rsatmalariga muvofiq bo'lgan barcha mahsulotlarni nazarda tutadi.

Shariat qonunlari turizm va mehmondo'stlik sohasiga bevosita ta'sir qiladi. Mazkur islomiy mezonlar "halol" va "harom" kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Arab tilidagi "hal" (الحل) o'zagidan olingan "halol" (حلال) so'zi diniy tomondan amalga oshirishga ruxsat etilgan amallar ma'nosini anglatadi, fiqhiy yondashuvda esa Alloh tomonidan bajarilishiga ruxsat etilgan va uni amalga oshirish taqiqlanmagan, ya'ni shariat tomonidan ma'lum amallarni bajarishda erkinlik berilganligini anglatuvchi so'z hisoblanadi. "Harom" (حرام) (so'zi arab tilidagi "hrm" (حرم) o'zagidan olingan bo'lib, halolga nisbatan zid ma'noni anglatuvchi "harom" so'zi man etilgan, taqiqlangan, halol bo'lmagan narsa yoki amallar ma'nolarini ifodalaydi. Fiqhiy jihatdan harom Alloh tomonidan bevosita va bilvosita, amalga oshirilmaligi qat'iy talab qilingan, amalga oshirish gunoh bo'lgan, uni tark etish savob olib kelgan kabi ma'nolarni anglatadi. Shu sababli musulmon haloldan foydalanishi va haromdan saqlanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ziyorat turizmida musulmon sayyoh va xizmat ko'rsatuvchilar islom dini tamoyillarini inobatga olgan holda faoliyat yuritishlari muhimdir [4].

Ziyorat turizmi sohasining xizmat ko'rsatuvchilari sayohat davomida musulmonlarning gunohdan saqlanishlari uchun bir nechta shartlarni hisobga olishlari darkor, bular, jumladan:

1. Tanlangan ovqatlanish maskanlarida spirtli ichimlik iste'moliga ruxsat berilmasligi;
2. Islom nuqtai nazaridan noto'g'ri kiyinish holati mavjud bo'lmasligi;
3. Ko'ngilochar maskanlarda ayol va erkaklarning bir joyda aralash dam olishiga sharoit yaratilmasligi;
4. Islomiy qadriyatlarga zid bo'lgan musiqa va raqslar, ko'ngilochar dasturlar namoyish etilmasligidir.

Ya'ni, har qanday manzil turistik xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan sayyoh va ziyoratchilar uchun islomiy xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olgan holda tahlil va muhokama qilinishi, so'ngra taklif etilishi lozim.

Conclusion:

O'zbekistonda islom dini o'zining boy tarixi va madaniy merosi tufayli ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda ziyorat turizmi uchun islom dinining muhimligining bir necha asosiy sabablari:

Tarixiy ahamiyati: O'zbekiston islom sivilizatsiyasining uzoq tarixiga ega, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar islom ta'limoti va madaniyatining ko'zga ko'ringan markazlari hisoblanadi. Bu shaharlarda muhtasham masjidlar, madrasalar va maqbaralar joylashgan bo'lib, ziyoratchilar va sayyohlarni o'ziga tortadi.

Diniy obidalar: O'zbekistonda ko'plab muhim islom diniy obidalari joylashgan, masalan, Samarqanddagi Registon maydoni, Bibixonim masjidi va Shoh-i-Zinda nekropoli joylashgan. Bu joylar musulmonlar uchun diniy ahamiyatga ega va butun dunyodan ziyoratchilarni jalb qiladi.

Madaniy meros: Islom dini O'zbekistonning arxitekturasidan tortib oshxonasigacha, musiqa va san'atigacha bo'lgan madaniy merosiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Bu madaniy boylik O'zbekistonning islom tarixi va an'alariga sho'ng'ish istagida bo'lgan musulmonlar uchun ziyoratgoh sifatidagi joziba bag'ishlaydi.

Ziyorat yo'llari: O'zbekiston Sharq va G'arbni bog'lagan qadimiy Ipak yo'li bo'ylab joylashgan. Bu tarixiy savdo yo'li tovarlar, g'oyalar va dinlar, jumladan, islom almashinuvini osonlashtirgan. Bugungi kunda Ipak yo'li bo'ylab ziyorat yo'llari qadimgi sayohatchilarning izidan qaytishga va muhim diniy obidalarni ziyorat qilishga qiziqqan musulmon ziyoratchilarni jalb qilmoqda.

Turizm infratuzilmasi: O'zbekiston o'zining sayyohlik infratuzilmasiga sarmoya kiritib, ziyoratchilarning diniy joylarga borishi va diniy tadbirlarda ishtirok etishini osonlashtirmoqda. Bunga diniy turistlar uchun mo'ljallangan turar joy, transport va qulayliklarni rivojlantirish kiradi.

Madaniy tajribalar: O‘zbekistondagi ziyorat turizmi an’anaviy islomiy marosimlarda qatnashish, so‘fiylar musiqasi chiqishlarida qatnashish va islomiy ashyolar va hunarmandchilik buyumlari sotiladigan mahalliy bozorlarni o‘rganish kabi noyob madaniy tajribalarni taqdim etadi.

Umuman olganda, islom dini O‘zbekistonda ziyorat turizmining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi va dindor musulmonlar va qiziquvchan sayohatchilarni mamlakatning boy islom merosi va ma’naviy ahamiyatini o‘rganishga jalb qiladi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PF-5611-son Farmoni. (2019). “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. www.lex.uz – <https://lex.uz/docs/-4143188?ONDATE=06.01.2019>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PF-6165-son Farmoni. (2021). “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. www.lex.uz – <https://lex.uz/docs/-5283956>
3. Imom Muslim. Sahihi Muslim. Birinchi nashr. – Qohira, “Doru ihyo al-kutub al-arabiya”, 1374. 976-b. 1977-hadis.
4. <https://www.musulmonlar.com/halol-va-haromni-kim-belgilaydi/>